



XII GLOBAL SCIENCE

AND INNOVATIONS 2021: CENTRAL ASIA

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-
PRACTICAL JOURNAL**



Nur-Sultan, Kazakhstan



**ОБЪЕДИНЕНИЕ ЮРИДИЧЕСКИХ ЛИЦ
В ФОРМЕ АССОЦИАЦИИ
«ОБЩЕНАЦИОНАЛЬНОЕ ДВИЖЕНИЕ «БОБЕК»
КОНГРЕСС УЧЕНЫХ КАЗАХСТАНА**

ISSN 2664-2271



**«ГЛОБАЛЬНАЯ НАУКА И ИННОВАЦИЯ 2021:
ЦЕНТРАЛЬНАЯ АЗИЯ»**

**№ 1(12). Февраль 2021
СЕРИЯ «ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ»
Журнал основан в 2018 г.**

III ТОМ

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Ж.Малибек, профессор;
Ж.Н.Калиев к.п.н.;
Лю Дэмин (Китай),
Е.Л. Стычева, Т.Г. Борисов (Россия)
Заместители главного редактора: Е. Ешім, Е. Абиев (Казахстан)



СОДЕРЖАНИЕ
CONTENT

Дуйсенкул Жансая Джамбулатқызы (Тараз, Қазақстан)	3
Тағудретова Ботағоз Бейбитовна (Нұр-Сұлтан, Қазақстан)	8
Шошакова Айнура Галымовна (Нұр-Сұлтан, Қазақстан)	12
Сыдыкова Толғонай Көчкөнбаевна (Бишкек, Қырғызстан)	15
Бейсекеева Карина Хамитовна (Нұр-Сұлтан, Қазақстан)	20
Сұлтанбекова Жәудір Келдібекқызы, Ерденова Сандугаш Муратовна (Түркістан, Қазақстан)	24
Наматова Наргиза Амантуровна (Ош, Қырғызстан)	28
Абдыкадырова Толқын Хасеновна (Қарағанды Қазақстан)	32
Гүлбала Құдайқұлқызы Қоштаева (Алматы, Қазақстан)	39
Imanalenova Dinara Zhanatovna (Kokshetau, Kazakhstan)	42
Alibekova Nurgul Oryntaevna, Almakhanova Samal Zhanabergenovna (Kyzylorda, Kazakhstan)	46
Бекен Мархаба (Көкшетау, Қазақстан)	48
Сеилханова Ардак Айтетовна, Арын Данель Бауыржанқызы (Павлодар, Қазақстан).....	50
Нурсолтанова Альмира Шериязданқызы (Өскемен, Қазақстан)	55
Ибраева Анель Болтабаевна (Нұр-Сұлтан, Қазақстан)	60
Шубина Ольга Юрьевна (Бишкек, Қырғызстан)	63
Makilova Khusniya Ergashovna (Kantau, Kazakhstan)	68
Нурмахова Жамиля Қдырбаевна (Алматы, Қазақстан)	71
Нұрлыбекұлы Исатай (Алматы, Қазақстан)	76
Асакеева Аида Бийликовна (Бишкек, Қырғызстан)	79
Искендерова Шарапат Абыловна (Бишкек, Қырғызстан)	84
Трихина Яна Валерьевна (Щучинск, Қазақстан)	87
Сейтасхар Таура Сейтасхаровна (Нұр - Сұлтан, Қазақстан)	90
Дүнгенбай Эльмира Нұрланқызы (Алматы, Қазақстан)	94
Даулетхан Құралай (Нұр-Сұлтан, Қазақстан)	98
С.Егимбаева (Бишкек, Қырғызстан)	101
D.A.To'rayeva, S.B.Yoqubova (Toshkent, O'zbekiston)	104
Сапарбай Айдана Адилбекована (Алматы, Қазақстан)	108
Тулеуова Майра Есенована (Алматы, Қазақстан)	110
Keldenova Saida Kanatovna (Kokshetau, Kazakhstan)	114
Sharipbekova Madina Bakhytzhankyzy (Almaty, Kazakhstan)	116
Bolat Adiya Erzhankeyzy (Almaty, Kazakhstan)	120
Елеуова Лейла Батыровна (Нұр-Сұлтан, Қазақстан)	122
Yereshova Aruzhan Kairbekovna (Kokshetau, Kazakhstan)	128
Zhexenbayeva Aizhan (Nur-Sultan, Kazakhstan)	130
Сейтбекқызы Айдана (Тараз, Қазақстан)	135
Әбдіразақ Арайлым Шақмұратқызы (Нұр-Сұлтан, Қазақстан)	139
Рысқұлбекова Гүлнұр Пернебайқызы (Нұр-Сұлтан, Қазақстан)	142
Айтжанова Айман Айтқурмановна, Қыстаубаева Ұлбосын Омирбековна (Талдықорған, Қазақстан)	146
Amzeyeva Tolganai Omaralikizy (Shymkent, Kazakhstan)	152



Лөлүгө айландырды түптүү элди,
Нөлү көп жылдар сыртта тегеренген... [6.2]

Ошондуктан улуттук поэзиябызда замандын катаал шарттарында канатын кайрып албай, арымын кенен таштап келаткан жаш акындардын катарында З. Ажыматов дагы изденүү менен жаңы формадагы, жаңыча теманы ачып берген таасирдүү ой дүйнөсүн ортого салган ырларды жаратуу менен чыгармачылык ийгилик жаратуу менен жан жүйдөсүнөн оргуп чыккан сезим жаңырыктарын окурманга тартуулаган.

*Жан адамга тийбей балким керегим,
жалгыз келгем, жалгыз кете беремин.*

*Бийманымды ченегиси келишсе,
ырда калат тайыздыгым, тереңим... [7.7]*

Акын З.Ажыматовдун бүтүндөй чыгармачылык өнөркана сырын бир макалада ачып берүү мүмкүн болбоду. Бирок, “Эл тараза, эл сынчы” дегендей, дүбүртү тээ алыстан угулган азыркы учурда “Жаш акындар” деп аталган жоон топтун катарында өзү жок болсо да ырлары калды. Бир күндүк эмес, түбөлүктүү сезим саптары кыргыз поэзиясынын барактарында сөзгө саран, ойго терең, жасалмалап, сылап сыйпабай тике айткан кайраттуу, өткүр сөзү калды.

Колдонулган адабияттар:

1. З.Ажыматов. “Падыша эл” <https://sputnik.kg/culture/20191106/1046156981/zajyrbek-azhymatovdun-kep-kazynasy.html>
- 2.. З.Ажыматов. “Өксүк” <https://kmb3.kloop.asia/2009/11/11/azhymatov-zajyrbek/>
3. Асакеева Д. Адабият теориясы. - Б., 2008. 45-б.
4. З.Ажыматов. “Өксүк” <https://kmb3.kloop.asia/2009/11/11/azhymatov-zajyrbek/>
5. З.Ажыматов. “Нөлү көп жылдар” <https://kmb3.kloop.asia/2009/11/11/azhymatov-zajyrbek/>
6. З.Ажыматов. “Нөлү көп жылдар” <https://kmb3.kloop.asia/2009/11/11/azhymatov-zajyrbek/>
- 7.З.Ажыматов. “Жүрөктөгү бороон” <http://ruhesh.kg/ky/dasmiya/246-azhimatov-zayirbek/zayirbek-azhimatovdun-zhuroktogu-boroon>

УДК. 801.83

SHAXSIY YOZISHMA TUSHUNCHASI

assistent **D.A.To‘rayeva**
doktorant **S.B.Yoqubova**

Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
(Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyatning rivojlanishi natijasida “til va huquq” bilan bog‘liq muammolarni hal etishda tilshunoslik va huquqshunoslik fanlarning o‘zaro bog‘liqligi, “Huquq va til” munosabati yuzaga kelganligi haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Til, huquq, yuridik til, qonun tili, shaxsiy yozishmalar, nutqiy jinoyat, sudlingvistik ekspertiza, ijtimoiy tarmoqlarda yozishmalar.



So'nggi yillarda tilshunoslik fanining amaliy ahamiyati tobora ortib jamiyatning rivojlanishi natijasida "til va huquq" bilan bog'liq muammolarni hal etishda tilshunoslik va huquqshunoslik fanlarining ilmiy-nazariy yechimlariga bo'lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda. Jumladan, davlat faoliyatida til bilan bog'liq munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, yuridik terminlarni qonunchilikda ishlatish, bir tildan ikkinchi tilga tarjima masalalari, yangi paydo bo'layotgan tushunchalarni ifodalash, turli xalqaro munosabatlarda tilining o'rni kabi masalalar, ayniqsa, dolzarblik kasb etmoqda. Nazariy fanlarda so'nggi paytlarda ushbu masalalarga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Ammo yuridik til haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar majmui sifatida yuridik lingvistikani alohida fan sohasi sifatida o'rganish maqsadga muvofiq. Chunki bunga yetarli asoslar mavjud. Yuridik lingvistikaning alohida fan sohasi sifatida o'rganilishi huquqning ijtimoiy munosabatlar tizimida tutgan keng miqyosdagi o'rni va ahamiyati, o'ziga xos lisoniy ifodalash uslubi va so'zlarning yuridik xususiyati, maxsus terminologiyasi mavjud ekanligi bilan tavsiflanadi¹.

Bugungi kunda jamiyatning turli sohalarida rivojlanish shiddat bilan bormoqda. Albatta, bu insoniyatdan yetarlicha bilimni talab etadi. Masalan, huquq sohasini oladigan bo'lsak, jinoyatlarni ochishda faqatgina yuridik soha emas, balki u bilan bir qatorda tilshunos, psixolog, sotsiolog kabi soha kishilarining hamkorlikdagi harakatini taqozo etyapdi. Vaholanki, jamiyatning har jabhasida til asosiy mezonda turadi. Xoh sud-huquq sohasi, xoh ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xoh siyosiy farmonlar bularning bari tilshunoslik bilan uzviy bog'liq. Oddiygina shifokorga borganimizda uning nutqi biz uchun qanchalik ahamiyatli bo'lganidek, qonun tili ham xalq uchun shu maqomda turadi. Zero, qonun tilining xalqqa yaqinligi jamiyat farovonligi uchun xizmat qiladi.

Ma'lumki, huquq sohasida jinoyat turlari ko'p. Shuning bir turi bo'lmish nutqiy nizolar o'zining tabiati bo'yicha nutqiy jinoyatdir, ularning boshqa jinoyatlardan farqi shundaki, ularda jinoyat quroli sifatida til chiqmoqda, bu esa kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin². Shunday paytda huquqshunoslik sohasida to'la, mustahkam bilimga ega tilshunosa talab ortadi. Tezkor rivojlanayotgan davrda yashar ekanmiz, o'z-o'zidan ommaviy axborot vositalari bizga har tomonlama ta'sirini o'tkazadi. Shaxsiy yozishmalardagi har bir jumlaning leksik-semantik tahlili, paralingvistik vositalarning o'rnini aniqlash kabi tahlillar, nafaqat, jinoyatning ochilishiga, balki jarayonga xolisona baho berishga ham katta yordam beradi.

"Huquq va til" munosabati dastlab XX asrning ikkinchi yarmida yuzaga keldi hamda eng avvalo, AQSH va G'arbiy Yevropada rivojlandi³. Bu borada yillar davomida keng tadqiqotlar olib borildi. Demak, nazariy asoslari yetarlicha, ammo unga amaliy jihatdan yondashish ko'pgina muammoli vaziyatlarga yechim bo'lishi mumkin. Shu asosda yuridik lingvistikaning tarmog'i bo'lmish lingvistik ekspertizani tilshunos ma'lum bir xonada nazariy asoslar bilan emas, balki xalq orasiga kirib, OAVlarining turli shakllaridagi matnlarining tahlilini olib borishi, uni to'la tushunishi, anglashi va asoslashi zarur. O'zbek tilshunosligida bu sohada bir nechta tadqiqotlar olib borilyapdi, bularning aksariyati huquqshunoslik bilan bog'liq. Bizningcha, amaliy tilshunoslik tarmog'i sifatida shaxsiy yozishmalarda lingvistik ekspertizani olib borish bugungi rivojlanayotgan asrimiz uchun dolzarb mavzulardan biridir.

¹Ўзбек суд лингвистикаси [Жамоавий монография]. / Ш.Х.Шахабитдинова, М.Ш.Содиқова, М.Т.Ахмедова, Ш.Х.Юлдашева, Х.Т.Исмоилов, С.С.Камолходжаева, Э.Э.Қурбонов, М.М.Ахунов – Андижон: Step by step print: 2020. – 30 б.

²Ўзбек суд лингвистикаси [Жамоавий монография]. / Ш.Х.Шахабитдинова, М.Ш.Содиқова, М.Т.Ахмедова, Ш.Х.Юлдашева, Х.Т.Исмоилов, С.С.Камолходжаева, Э.Э.Қурбонов, М.М.Ахунов – Андижон: Step by step print: 2020. – 12 б.

³Yuqoridako'rsatilganasar. –B.31.



Avvalgi yillarga nisbatan 2020-yil shaxsiy yozishmalar ancha rivojlandi. Endilikda insonlar mustahkam axloqiy qoidalar bilan nazorat qilingan bo'lsa, endilikda har bir kishi o'zini o'zi tartibga chaqirib turishiga to'g'ri keladi. Zero biz har tomonimizni qurshab olgan texnika asrida yashayapmiz. Shuning uchun ham elektron saytlardan foydalanishimizda, albatta, o'zimizning shaxsiy yozishmalarimizga ega bo'lamiz. Endi internetda, jumladan, shaxsiy xabarlarida yozilgan barcha narsalar osongina jamoatchilikka aylanishi mumkin. Avvalo, shaxsiy yozishmalarining ham mavzu doirasi inobatga olinadi. Masalan, hammaga ma'lum bo'lgan axborot haqida yozilgan bo'lsa, u hamma uchun ma'lum va maxfiy ma'lumot emas. Bunday vaziyatlarda tarqatuvchi shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Ammo agar u ilgari omma oldida mavjud bo'lmagan va shaxsiy hayotga taalluqli bo'lmagan ma'lumotlarga ega bo'lsa, masalan, asrab olish sirlari yoki u yashirgan romantik munosabatlar bo'lsa, u holda fuqarolik va jinoiy javobgarlik paydo bo'lishi mumkin⁴.

Internetning rivojlanishi - yangi kommunikativ makon-yangi tadqiqot ob'ektlarining paydo bo'lishiga olib keldi. So'nggi yillarda ekspert amaliyotini olib borish nisbatan rivojlanish bosqichiga o'tmoqda. Endilikda biz an'anaviy yozishmalar, diplomatik xatlar ustida emas, balki audio va vizual, og'zaki va yozma elektron ma'lumotlarning tahlilini olib borishimiz kerak. Bu borada Rossiya davlati ancha ilg'or. Rossiya Adliya vazirligining 2006-yil 5 26.1-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "nutq faoliyati mahsulotlarini o'rganish" ixtisosligi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash dasturi buning yorqin dalilidir.

Nisbatan yondosh respublikalardan Qozog'iston Respublikasida ekspertlar amaliyoti va ilmiy-uslubiy ishlanmalar filologiya va psixologiya, dinshunoslik, siyosatshunoslik sohasidagi bilimlarni kompleks qo'llash yo'lidan bormoqda. Belorussiyada ekstremistik materiallarni tadqiq qilish uchun keng qamrovli psixologik va lingvistik yondashuv qabul qilingan.

Tilshunoslikda so'nggi yillarda yozma matnning turli jihatlarini o'rganildi: yozuvning kompozitsion va dialogik tuzilishi (Akishina, Formanovskaya 1981, Gulyakova 1999, Belunov 2000), janr tipologiyasi nuqtai-nazaridan lingvopragmatik - (Kovalev 2000, Kuryanova 2001), lingvostilistik jihatdan (Vinogradova 1991, Balanchik 1992) Buxarkin P.E.⁵, Belunova N.I.⁶, Nijnikova⁷ va ijtimoiy - lingvistik asosi (Danker 1992⁸).

Nazariy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, keng doirada o'rganish xususiyatiga ega birliklardan biri bo'lmish "matn" atamasining yagona talqini mavjud emas. Shu bilan birga, matn nutq faoliyati mahsuli va axborot tashuvchisi sifatida nutq faoliyati va axborotga xos xususiyatlarga ega ekanligini bilan ahamiyatli. Matn orqali fikrlar (ma'lumotlar), g'oyalar almashinuvi amalga oshiriladi; aloqa akti sifatida matnga uni ishlab chiqaradigan, qabul qiladigan va sharhlaydigan kommunikatorlar bilan bevosita aloqasi bor. Shunday qilib, matn axborot, ijodiy va pragmatik jihatlarining birligi sifatida qaralishi mumkin. M. Brandesning fikriga ko'ra, yozma nutqning o'ziga xos xususiyati shundaki, u suhbatdoshning yo'qligida qurilgan og'zaki muloqotning vositachilik shaklidir, shuning uchun u imkon qadar kengaytiriladi, uning sintaktik qurilishi maksimal darajaga yetadi.

An'anaviy turdagi sud-psixologik va sud-lingvistik ekspertizalar hamkorlikda sud psixologik-lingvistik ekspertizani tashkil qilmoqda. Misol uchun, o'z joniga qasd qilish holatlarida ekspertizani tayinlashda, tergov, ko'pincha, psixologik emas, balki lingvistik

⁴<https://daily.afisha.ru/relationship/>

⁵Бухаркин П.Е. Письма русских писателей XVIII в. и развитие прозы (1740-е–1780-е гг.). С. 7; Макогоненко Г.П. Письма русских писателей XVIII в. и литературный процесс. С. 33–40.

⁶Белунова Н.И. Дружеские письма творческой интеллигенции. С. 45; Беттузия Н. Особенности текстов эпистолярного жанра. С. 81.

⁷Нижникова Л.В. Письмо как тип текста: автореф. дисс. ... канд. филол. наук / Одес.гос. ун-т. Одесса, 1991.

⁸Данкер З.М. Функционально-семантическая организация текста частного письма (ситуация установления контакта): автореф. дисс. ... канд. филол. наук / СПбГУ. СПб., 1992.



tadqiqotlarga e'tiborni qaratmoqda, ya'ni talab qilinadigan katta hajmdagi axborot materiallari (ijtimoiy tarmoqlarda yozishmalar, Internet jurnallari va boshqalar) bevosita tilshunoslik bilan aloqador⁹. Ijtimoiy internet muhiti va texnologiyalarni rivojlantirish bilan bog'liq yangi aloqa turlari paydo bo'lishidan oldin-bunday ob'ektlar mavjud emas edi. Ya'ni yozma matnlar sirasiga maqolalar, kitoblar, shikoyatlar, yozuvlar, tushuntirishlar va protokollar, eslatmalar, o'lim yozuvlari va boshqalar kirar edi. Bugungi texnika rivojlangan asrga kelib esa ijtimoiy tarmoqlarda yozishmalar, bloglar, forumlar, sharhlar, xabarlar, skype orqali muloqot –bularning bari tahlil talab masalaga aylanmoqda. Bu borada psixologik muammo sifatida haqorat qilish va sharaf va qadr-qimmatni himoya qilish masalalari, shuningdek, muallifsiz yozishmalarning shaxs Yoshi, yoinki, adresatning yashaydigan hududini aniqlash bo'yicha ekspertiza ham asosiy lingvistik muammolardan biridir.

Adabiyotlar

1. Ўзбек суд лингвистикаси [Жамоавий монография]. / Ш.Х.Шахабитдинова, М.Ш.Содиқова, М.Т.Ахмедова, Ш.Х.Юлдашева, Х.Т.Исмоилов, С.С.Камолходжаева, Э.Э.Қурбонов, М.М.Ахунов – Андижон: Step by step print: 2020. – 30 б.
2. Секераж Т.Н., Кузнецов В.О. Комплексная Судебная Психологолингвистическая Экспертиза: Формы, Виды, Перспективы Развития. Теория и практика судебной экспертизы № 4 (44) 2016 . С. 98.
3. Бухаркин П.Е. Письма русских писателей XVIII в. и развитие прозы (1740-е–1780-е гг.). С. 7; Макогоненко Г.П. Письма русских писателей XVIII в. и литературный процесс. С. 33–40.
4. Белунова Н.И. Дружеские письма творческой интеллигенции. С. 45; Беттузия Н. Особенности текстов эпистолярного жанра. С. 81.
5. Нижникова Л.В. Письмо как тип текста: автореф. дисс. ... канд. филол. наук / Одес. гос. ун-т. Одесса, 1991.
6. Данкер З.М. Функционально-семантическая организация текста частного письма (ситуация установления контакта): автореф. дисс. ... канд. филол. наук / СПбГУ. СПб., 1992.
7. <https://daily.afisha.ru/relationship/>

⁹Т.Н. Секераж, В.О. Кузнецов Комплексная Судебная Психологолингвистическая Экспертиза: Формы, Виды, Перспективы Развития. Теория и практика судебной экспертизы № 4 (44) 2016 . С. 98.